

GILOS PASHSHASIGA QARSHI TURLI TUTQICHLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Tufliyev Nodirbek Xushvaqtovich

q.x.f.d., O'XQITI professor

Xolmirzayeva Zulfizarxon Baxodirjonovna

AQXAI "O'simliklarni himoya qilish" kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada gilos agrobiotsenozida qisman uchrayotgan zararkunanda gilos pashshasiga qarshi jinsiy feromon va turli tarkibli ozuqaviy tutqichlardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *Rhagoletis Cerasi* L., gilos pashshasi, lichinka, jinsiy feromon, ozuqaviy tutqich, gilos zararkunandalari.

Аннотация. В статье приведены сведения о возможностях применения феромонных и питательных ловушек различного состава для борьбы с вишневой мухой, частично встречающейся в вишнёвом агробиоценозе.

Ключевые слова: *Rhagoletis Cerasi* L., Вишневая муха, личинка, феромон, пищевая ловушка, вредители вишни.

Abstract. The article gives information about possibilities of using pheromone and nutritional traps with different composition to control the cherry fly, which partially found in cherry agrobiocenosis.

Key words: *Rhagoletis Cerasi* L., cherry fly, larva, pheromone, nutritional trap, cherry pests.

Jahondagi gilos yetishtirish bo'yicha yetakchi mamlakatlarda gilos hosiliga bir necha turdagi zararkunandalarning xavfi kuzatilib, gilos mevasining mazasi, eksportbopligi, saqlanish muddatlarining qisqarishiga ta'sir etishi natijasida katta iqtisodiy zarar yetishiga olib kelmoqda. Gilos agrobiotsenozida uchraydigan eng xavfli zararkunandalardan gilos pashshasi, olcha shilliq arrakashi, kulrang kurtak uzunburuni, olcha filchasi kabi bir qancha zararkunandalar keng miqyosda zarar keltirayotgan bo'lib, ularga qarshi kurashning maqbul muddati va me'yorlarini belgilashga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Keyingi yillarda dunyo gilos plantatsiyalarida uchraydigan zararkunandalardan biri hisoblangan gilos pashshasining zarari yuqori hisoblanib, bu zararkunandaga qarshi kurash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Organik mahsulot etishtiruvchi bog'larda gilosning asosiy zararkunandasi – gilos pashshasi *R. cerasi* (L.) bilan kurashishda sariq rangli tutqichlardan foydalanish orqali muvaffaqiyatli qarshi kurashish mumkinligi adabiyotlarda keltirilgan [1, 2, 3].

Gilos mevasini zararlaydigan gilos pashshasi tadqiqotlarimizda o'rganilgan bo'lib (bu hasharotning aniq turi hozirda aniqlanmadi), Farg'ona viloyatining Vodil, Andijon viloyatining Jalaquduq, Bulqoboshi, Xo'jaobod tumanlarining chegara hududlarida joylashgan bog'dorchilik hamda aholi tomorqa xo'jaliklarida zarari qayd etildi (1-rasm).



A

B

1-rasm. A. Gilos pashshasining gilos mevasiga zarari.

B. Gilos pashshasining lichinkalari. And. vil. Xo'jaobod tumani. 28.05.2022 y. (Z.B.Xolmirzayeva olgan surat)

Andijon viloyatining Andijon, Paxtaobod, Izboskan, Marxamat, Asaka tumanlarida, Namangan viloyatining Namangan, To'raqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tumanlarida, Farg'ona viloyatining Quva tumanlarida

joylashgan gilos bog'larini nazorat qilganimizda bu zararkunanda turlari aniqlanmadi.

Gilos pashshasiga qarshi kurashda feromonitroning asosiy rol o'ynaydi. Sababi zararkunandaning yetuk zotini rivojlanishi, zichligi va zarar keltirish darajasini hamda uning tuxum va lichinkalariga qarshi o'z vaqtida, aniq muddatlarini belgilashda feromon tutqichlar asosiy vosita hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi sharoitida gilos pashshasining tuproqdan uchib chiqish muddatlarini hamda fenologik rivojlanishini o'rganish uchun bir qancha tadqiqotlar olib bordik. Jumladan, 2022 yil Rossiyaning "Butunrossiya o'simliklar karantini ilmiy markazi" (ФГБУ "ВНИИКР") da, Feromonlarni sintez qilish va qo'llash bo'limi kimyogar va entomolog olimlari tomonidan sintez qilingan gilos pashshasi imagolariga qarshi 3 xil variantdagi ozuqaviy tutqichlarni hamda Italiyaning "Sigmaitaly" "yashil" iqtisodiyot sohasida faol ishtirok etadigan innovatsion kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan jinsiy feromon tutqichlari bilan tadqiqotlar olib bordik.

2022 yil 10-14 aprel kuni 4 ta variantda ozuqaviy va feromon tutqichlar vodiyni 5 ta hududida Andijon viloyatining Paxtaobod tumani "Hoji Abdulxay" bog'dorchilik xo'jaligining 4 gektar maydonida 8 dona, Izboskan tumani "Abduvohid bog'i" bog'dorchilik xo'jaligining 5,4 gektar maydonida 8 dona, Bulqoboshi, Xo'jaobod tumanlarining axoli tomorqa xo'jaliklarining 4 ga maydonida 16 donadan, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani "Usmonov Abdurasul Abdulhafizovich" bog'dorchilik xo'jaligining 1,5 gektar maydonida 8 dona, Farg'ona viloyati Quva tumani "Yusupov Tursunboy Xatamovich" bog'dorchilik xo'jaligining 3 gektar maydonida 8 dona tutqichlar gilos daraxti shoxlariga 1,5-2,0 m balandlikka o'rnatildi (2-rasm).



2-rasm. Gilos pashshasi imagolarini tuproqdan uchib chiqish muddatlarini hamda fenologik rivojlanishini o'rganish bo'yicha feromon tutqichlardan foydalanish. And. vil. Xo'jaobod tumani. 12.04.2022 y. Z.B.Xolmirzayeva

**Гилос пашшасига qarshi kurashda turli tutqichlardan foydalanish
Farg'ona vodiysi viloyatlari (2021-2022 yy.)**

1-jadval.

№	Zararkunanda nomi	1-variant Ozuqaviy tutqich “VNIKR”	2-variant Ozuqaviy tutqich “VNIKR”	3-variant Ozuqaviy tutqich “VNIKR”	4-variant Jinsiy feromon “Sigmaitaly”
1.	Girdak kuyasi	+			
2.	Sharq mevaxo'ri			+	+
3.	Oddiy oltinko'z			+	+
4.	Sirfidlar yoki go'ng pashshalari		+		
5.	Sarkofagidlar yoki kulrang go'sht pashshalari	+		+	+
6.	Taxin pashshalari		+		

Tutqichlarning maxsus yelimlari har 10 kunda yangisiga almashtirilib turildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalarida ozuqaviy va jinsiy feromon tutqichlarning hech birida gilos pashshasining imagolari ilinmadi. Rossiyaning "Butunrossiya o'simliklar karantini ilmiy markazi" (ФГБУ "ВНИИКР") Feromonlarni sintez

qilish va qo'llash bo'limi kimyogar va entomolog olimlari tomonidan sintez qilingan gilos pashshasi imagolariga qarshi 3 xil variantdagi ozuqaviy tutqichlar nazorat qilinganda 1-variantda 1 turdagi zararkunanda hamda 1 turdagi entomofaglar tushganligi, 2-variantda esa faqatgina 2 turdagi entomofag ilindi hamda 3-variantda 1 turdagi zararkunanda va 2 turdagi entomofag ilinganligi qayd etildi (1-jadval).

Keyinchalik gilos mevasi pisha boshlagan davrda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani aholi tomorqa xo'jaliklari (gilos pashshasiga qarshi feromonlar o'rnatilgan) maydonida gilos pashshasi lichinkalari paydo bo'ldi. Boshqa hududlarda 3 yil mobaynida gilos mevalari gilos pashshasi lichinkalari bilan zararlanmadi.

Shuningdek, Italiyaning "Sigmaitaly" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan 4-variantdagi jinsiy feromon tutqichlariga 1 turdagi zararkunanda va 2 turdagi entomofaglar ilindi. Kelgusi yilgi tadqiqotlarimizni aynan shu gilos pashshasi tarqalgan hududlarda chuqurlashtirilgan holda ilmiy izlanishlar olib borish rejalashtirildi.

ADABIYOTLAR:

1. Karov S., Andreev R. Plant protection in organic and integrated gardening. Agro-Ecological Center, Higher Institute of Agriculture, Plovdiv, Bulgaria, - 151 p.
2. Lecheva I., Andreev R., Ivanova D. 2001. Ecological approach in control of the cherry fly (Rhagoletis cerasi) in conditions of biological agriculture. // J. Environm. Prot. Ecol. № 2 (4) pp 949-953
3. Sredkov I.. Biological and ecological fundaments of control on cherry fly Rhagoletis cerasi L. (Diptera: Tephritidae). // Ph.D. dissertation. Agricultural Institute, Kustendil, Bulgaria 2000

УЎТ: 634.21: 632.7: 632

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА ОЛМА ШИРАСИНИНГ БИОЭКОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Сафаров Муртоза Абсаломович

Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий тадқиқот институти таянч докторанти.

Шукуров Хушвақт Мамасалиевич

Илмий ишлар ва инновациялар бўйича директор ўринбосари

Утапов Неъмат Эгамқулович

Ахборот ресурси маркази директори,

Ҳашимова Мадинабону Раҳмонберди қизи

ассистент

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Тошкент филиали

Аннотация: Мақолада олма ширасининг ривожланиш босқичлари, яшаш муҳити, озикланиши, беҳи боғларга зарари ҳамда Сурхондарё вилояти шароитида кузатиш ишлари олиб борилганлиги ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: энтомофауна, флора, ҳашарот, тухум, личинка, авлод.

Аннотация: В статье рассказывается об этапах развития яблоневых вшей, среде обитания, питания, поражении айвовых садов, проводилась наблюдательная работа в Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: энтомофауна, флора, насекомое, яйцо, личинка, генерация.

Annotation: The article tells about the stages of development of apple lice, habitat, nutrition, harmfulness of orchards, observational work was carried out in the Surkhandarya region.

Keywords: entomofauna, flora, insect, egg, larva, generation.

Республикамиз мевали боғлари хилма-хиллиги билан ўзига хос ўрнига эга. Кейинги йилларда мевали боғларга эътибор берилиши билан биргаликда уларнинг энтомофаунаси

хилма-хиллиги янада ортиб бормоқда. Мевали боғлар жойларда ҳудуд флорасини бойитибгина қолмай, ҳашаротлар, шу жумладан ширалар фаунасини ўзгаришига, ўзига хос